

SAID AHMAD VA NE'MAT AMINOV IJODIDA SATIRA

*Murodova Muqadas Ikromovna, Samarqand davlat universiteti
Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, (PhD)*

SATIRE IN THE WORKS OF SAID AHMAD AND NE'MAT AMINOV

*Murodova Mukadas Ikromovna, Kattakurgan Branch of Samarkand
State University Doctor of Philosophy in Philology (PhD)*

САТИРА В ТВОРЧЕСТВЕ САИДА АХМАДА И НЕЪМАТА АМИНОВА

*Муродова Мукадас Икромовна, Каттакорганский филиал
Самаркандского государственного университета, доктор
философии по филологии (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0007-4381-7167>

e-mail:

murodova@mail.ru

Annotatsiya: XX asr o'zbek yozuvchilari satira janrini turlicha talqin qilishdi, ba'zi birlar unga nazmning ma'lum bir turi deb, boshqalar esa satirik qobiliyat bilan yozilgan she'r deb ta'rif berishdi. Ba'zi yozuvchilar esa satira adabiyotning rasmiy janri bo'lib, u nasriy asarda ham, nazmda ham bir xil xususiyatni namoyon etishini ta'kidlashdi. Shuni ta'kidlash kerakki, satirada hayotdagi mutanosiblik saqlanmaydi, balki mubolag'alarga, kinoyaga, oshirib ko'rsatish, bo'rttirishlarga keng o'rin beriladi. Satira jamiyatdagi illatlarni ayovsiz fosh etadi va ularni butkul yo'qotishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: satira, kinoya, estetik kategoriya, tamoyillar, satirik tragediya, satirik komediya, satirik hikoya.

Abstract: In the 20th century, Uzbek writers interpreted the genre of satire in various ways. Some defined it as a specific type of poetry, while others described it as a poem written with satirical ability. Some writers emphasized that satire is an official genre of literature, manifesting similar characteristics in both prose and poetry. It should be noted that satire does not maintain proportionality to reality; rather, it allows for exaggerations, irony, hyperbole, and distortions. Satire ruthlessly exposes the ills of society and aims to eradicate them completely.

Keywords: satire, irony, aesthetic category, principles, satirical tragedy, satirical comedy, satirical story.

Аннотация: В XX веке узбекские писатели по-разному интерпретировали жанр сатиры. Некоторые определяли его как определенный вид поэзии, в то время как другие описывали его как стихотворение, написанное с сатирическим талантом. Некоторые писатели подчеркивали, что сатира является официальным жанром литературы, проявляющим схожие характеристики как в прозе, так и в поэзии.

Ключевые слова: сатира, ирония, эстетическая категория, принципы, сатирическая трагедия, сатирическая комедия, сатирическая история.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Satira XX asr o'zbek adabiyotida yangi taraqqiyot davriga kirdi, uning mavzu, janrlar doirasi kengaydi, ijtimoiy ahamiyati va ta'sirchanligi ortdi. Uning taraqqiyotiga Hamza, Abdulla Qodiriy, Sadriddin

Ayniy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va Ne'mat Aminov singari yozuvchilar salmoqli ulush qo'shdilar[3;315].

Abdulla Qodiriyning "Kalvak Mahzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi?",

“Shirvon xola nima deydi?”, Sadridin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” (1939) hajviy qissasi, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Sobiq”, “Qoplol”, “O‘rik domla”, “Mening do‘stim Babbayev”, “Muzey”, “Bo‘ri ovi”, “Xandonpista” kabi hajviy asarlarida, Ne‘mat Aminovning “Yolg‘onchi farishtalar” kabi satirik asarlarida yozuvchilarning mohir satiranavis ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O‘zbek adabiyotining zabardast yozuvchilaridan biri Said Ahmad (Husanxo‘jayev) 1920-yilda Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida tavallud topgan. 1939-yilda o‘rta maktabni, 1941-yilda esa oliy o‘quv yurtini tamomladi. 1940-yilda o‘zining birinchi hikoyalar to‘plami “Tortiq”ni nashr ettirdi. Urush va urushdan keyingi davrlarda Said Ahmad ko‘plab felyeton, ocherk va hikoyalar yozgan. Uning “Eryurak” (1942), “Farg‘ona hikoyalari” (1948), “Muhabbat” (1949) kabi to‘plamlari nashr etilgan. Olimlar uning hikoyalarida Oybekning psixologik tasvir mahorati, G‘afur G‘ulom yumori, Abdulla Qahhor bayonidagi ixchamlik mujassamligini ta’kidlaganlar. “Cho‘l burguti”, “O‘rik domla”, “Lochin”, “Odam va bo‘ri”, “Bo‘ston”, “To‘yboshi” kabi qator asarlari nafaqat Said Ahmad ijodiga, balki o‘zbek nasriga ham yangilik bag‘ishladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Shuni ta’kidlash lozimki, Said Ahmad dramaturg sifatida ham tanilgan. Uning “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Kuyov” kabi sahna asarlari xalqning yuragidan alohida joy olgan. Hazil tarzida yozilgan “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asarining bosh mavzusi – to‘g‘rilikka intilish, poraxo‘rlikni qoralash, erk uchun kurashdir. Asardagi 7 kelin davlatlar ramzidir. Farmon bibi boshchiligida 7 o‘g‘il, 7 kelin va 41 nevara bir hovlida ahil-inoq yashab, bitta qozondan ovqatlanishadi. Yozuvchi o‘z asarida sobiq Sovet Ittifoqi davrini badiiylashtirgan. Yozuvchi bosh qahramoniga Farmon bibi deb bejizga nom qo‘ymagan. Oiladagi barcha moliyaviy ishlarni kirim-chiqim daftari orqali nazorat qilib boradi, kezi kelganda farmon berib oilani boshqaradi. Oyning o‘n beshinchi sanasida o‘g‘illar ham, kelinlar ham olgan oyligini keltirib Farmon bibiga topshiradi. Yozuvchi ushbu oilani bir davlatga o‘xshatadi. Asar debochasida usta

Boqi nutqi orqali yozuvchi bunga shama qiladi: “Mamlakatimizning territoriyasi xuddi shu yerga kelganda tugaydi. U yog‘i boshqa mamlakat. Mana shu parda chegara. U yog‘i xotin poshshoning yurti. Bu poshsholikning o‘z qonuni, o‘z urf-odatlar bor”[1]. Ko‘rinib turibdiki, usta Boqi Farmon bibi oilasini poshsholik yurtiga qiyoslayapti.

Nigora obrazi inqilob qiluvchi obraz. U kelinlar birlashsa, katta kuchga aylanishini ta’kidlaydi: “Agar 7 kelin qo‘lga berib, bir jang qilsak, Marshal kampirning boshiga qurshovda qolgan feldmarshal Paulyusning kunini solishimiz hech gap emas”.

Nigoraning keyingi nutqlaridan shu narsa ayon bo‘ladiki, asarda erk mavzusi ham tilga olingan: “Shu ahvolga chidab yuraverasizlarmi? Bo‘lmasam bir xotirjam gaplashar ekanmiz-da. Masalan, men bu ahvolda, erksiz quldek yashashga aslo rozi emasman. Nahotki yetti kishi, bir kishiga bas kelolmaymiz. O‘ylab ko‘ring, mening tarafimga o‘tsangiz, hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib kurashsak, bu uydagi tartib-intizom albatta o‘zimiz xohlagancha bo‘ladi”. Nigora hamma kelinlar va o‘g‘illarni yig‘ib, majlis uyushtiradi. Alohida-alohida yashab, erkin hayot kechirishga chorlaydi[2].

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Jorj Oruellning “Hayvonlar fermasi” asarida ham “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asaridagidek erk va ozodlik masalasi asosiy mavzudur. “Hayvonlar ferma”sidagi hayvonlar ham majlis qilib, erk uchun, ozodlik uchun qo‘zg‘olon qilishga kelishib olishadi. Mustaqil yashashni orzu qilishadi. Ikkala asarda ham erk mavzusi madh etilgan.

O‘zbek hajv adabiyotining iste’dodli vakillaridan biri Ne‘mat Aminov 1937-yil 17-iyulda Buxoro viloyatining Romitan tumanida, temirchi oilasida tavallud topgan. Adibning “Ikki pullik obro‘”, “Qirq uchinchi po‘chcha” (1970), “Labihovuz xandalari” (1977), “Chinorlar qo‘shig‘i” (1984), “Yelkasiz polvon” (1986), “O‘g‘ri mushukcha” (1987), “Qahqaha”(1987), “Yallama yorim” (1988), “Chol bolaning ertaklari” (1990) kabi kitoblari xalq orasida mashhur.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ne‘mat Aminov 1976-1894 yillarda “Yolg‘onchi farishtalar” nomli satirik asarni yaratdi. Asar “Yelvizak” va “Suvarak” qissalaridan iborat. Asar kitobxonlar orasida shuhrat qozondi. Qissalarda

hayotiy voqealar asosida hayotdagi illatlar fosh qilinadi. Asarning bosh qahramoni – Bashirjon Zaynishev. Yozuvchi bu obraz orqali o'zida yo'q fazilatlar bilan kekkayadigan, iqtidorsiz, bilimsiz odamlarni satira o'qiga tutadi [3].

Yozuvchi “Yolg'onchi farishtalar” asarida qahramonlarining hayoti, xislatlari, fazilatlarini, kasbi-korini mohirona tasvirlaydiki, har bir qahramon o'quvchi ko'z o'ngida jonli inson gavdalanadi, xotirasida o'chmas iz qoldiradi. Asar bosh qahramoni Bashirjon Zaynishevning xatti-harakatlari jonli, bo'lib o'tgan sarguzashtlari esa hayotiy tasvirlangan. Bosh qahramon biron-bir sohada mukammal bilimga ega emas, qayerda ishlasa, o'sha yerda ishlar samarali bo'lmaydi. U doimo kichik, arziyasiz tashvishlar bilan yelib-yuguradi va har doim shaxsiy manfaatini ko'zlab yuradi. Ozod Sharafiddinov Bashirjon Zaynishev obrazini quyidagicha tahlil qiladi: “Bashirjon biron-bir sohada tuzukroq bilimga ega emas, lekin shunga qaramay, sir boy bermaydi – o'zi madaniyatli, saviyasi baland, bilimi zo'r qilib ko'rsatishga urinadi – kizagi keng shlyapa kiyadi, to'g'nog'ichli galstuk taqadi, lavsan shim, yaponcha oq ko'ylak kiyib, modadan qolmaslikka tirishadi, hindcha filmlarni qoldirmay ko'radi, “Qobusnoma”ni o'qib, undagi pand-nasihatlarini yodlaydi, Pavlovning “Oliy nerv sistemasi” kitobidan ko'chirmalar yozib olib, o'tirishlarda ularni aytib, hammani “qoyil” qoldiradi. Ibn Sino asarlarini ham shu maqsadda o'qiydi. Gazeta va jurnallarni ham biron ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun o'qimaydi, ulardagi “Har to'g'rida”, “Olamda nima gap?”, “Futbol yangiliklari” kabi bo'limlarni ko'zdan kechirib, qiziqarli faktlarni yon daftariga ko'chirib qo'yib, o'rni kelganda ularni ham aytib yuradi[5].

Asar mazmunidan anglashiladiki, muallif bilimsiz, kekkaygan, o'zida yo'q xislatlarni bor qilib ko'rsatuvchi insonlar xatti-harakatini, hayotini asarda badiiylashtirgan. Asardagi barcha holatlar, vaziyatlar, ularda ishtirok etuvchilar jonli va hayotiydir. Hayotiy qahramonlar va sarguzashtlar asarni o'quvchilarga sevimli qildi. “Yelvizak” qissasini o'qib turib, muallif qahramonning psixologik holatini mohirona chizib, tasvirga jon bag'ishlaganiga amin bo'lasiz. “Alanga” gazetasida o'zi va rafiqasi haqidagi felyetonni o'qib, Bashirjon Zaynishev jazavaga tushadi: “Bashirjon qizargancha

gazetani ikki qo'llab g'ijimladi, keyin jahl bilan parcha-parcha qilib, yana g'ijimladi va savat-to'rga tashladi. O'rnidan kallasi g'uvillab turib, tevaragi qiyshiq shlyapasini olib boshiga qo'ndirarkan, o'z-o'zicha; “Ah-mo-oq!”, deb g'udrandi” [2].

“Tuslanish” nomli hikoyasida Zaynishev Xo'jaqulova bilan suhbat jarayonida o'z kamchiliklarini yashirish maqsadida bir necha bor tusini o'zgartirishi, xushomad qilishi yozuvchi tomonidan masxara qilinadi. Shuni aytish lozimki, Bashirjon Zaynishev to'laligicha bilimsiz qahramon emas. U kitob, gazeta va jurnallar o'qib, kerakli ma'lumotlarni yon daftariga yozib oladi va ulardan o'z nutqlarida foydalanadi. Bu esa yozuvchi salbiy qahramonni tasvirlashda faqatgina qora bo'yoqdan emas, balki yorqin bo'yoqlardan ham foydalanganligini va ijobiy xislatlar ham baxsh etganligini bildiradi[6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida aytish mumkinki, haqiqatdan ham, XX asrda satira jahon adabiyotida yangi taraqqiyot davriga kirdi. Bu davrda mavzu va janrlar doirasi yanada kengayib, deyarli barcha janrlarda satiraga xos metodlar paydo bo'ldi. Kinoyaga, oshirishlarga, bo'rttirishlarga, kulgili holatlarga, fantaziyalarga boy, bir-biridan ajoyib satirik asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Satira jamiyat ravnaqiga to'siq bo'layotgan illatlarni ayovsiz fosh etish, kishilarni yuksak ideallar ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladigan janr sifatida ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va ta'sirchanligi yanada ortdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Aminov N. Yolg'onchi farishtalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1987. – 270 b.
2. Gorkiy M. Adabiyot haqida. – Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962. – 108 b.
3. Nurmuhammedov M.K. Adabiyot nazariyasi. Birinchi tom. – Toshkent: Fan, 1978.
4. Qahhor A. Asarlar. Besh jildlik. 3-jild. – Toshkent. 1988.
5. Qahhor A. Hayot hodisasidan badiiy to'qimaga. Adabiyotimiz avtobiografiyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1973. – 214 b.
6. Qahhor A. Muhabbat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.